

O'zbekiston Respublikasi chakana va ulgurji savdo tovar aylanmasi

2025-yil yanvar–sentyabr oylari uchun dastlabki ma'lumot

- I. Chakana savdo tovar aylanmasi
- II. Ulgurji savdo tovar aylanmasi
- III. Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo tovar aylanmasi
- IV. Uslubiy ma'lumotlar
- V. Aloqador boshqa havolalar


I. Chakana savdo tovar aylanmasi

2025-yil 1-oktyabr holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 84 838 tani tashkil etib, shundan faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 355 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 84 483 tani tashkil etdi.

2025-yilning yanvar–sentyabr oyida respublikaning chakana savdo tovar aylanmasi 316 378,5 mlrd so'mni tashkil etib, 2024-yilning yanvar-sentyabr oylariga nisbatan 11,0 %ga o'sdi. Jumladan, yirik korxonalarning savdo tovar aylanmasi 57 604,6 mlrd so'mni tashkil etdi (o'sish sur'ati – 117,8 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi esa 258 773,9 mlrd so'mni tashkil etdi (o'sish sur'ati – 109,6 %).

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati


2025-yil yanvar–sentyabr oylari



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Chakana savdo tovar aylanmasi hajmi \(oylik\)](#)

**Chakana savdo hajmida yirik korxonalar, kichik biznes
va xususiy tadbirkorlikning ulushi bo'yicha dinamikasi**




II. Ulgurji savdo tovar aylanmasi

2025-yil 1-oktyabr holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 50 086 tani tashkil etib, shundan faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 391 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 49 695 tani tashkil etdi.

Respublika bo'yicha 2025-yilning yanvar–sentyabr oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 346 597,3 mlrd so'mni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 12,6 %ga o'sdi.

Yirik korxonalarning ulgurji savdo tovar aylanmasi 98 072,9 mlrd so'mni tashkil etdi (o'sish sur'ati – 121,6 %), kichik biznes subyektlarining tovar aylanmasi esa 248 524,4 mlrd so'mni tashkil etdi (o'sish sur'ati – 109,5 %). Respublikada jami ulgurji savdo hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi 71,7 %ni tashkil etdi.


Ulgurji savdo hajmi dinamikasi
2025-yil yanvar–sentyabr oylari, mlrd so'm



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Ulgurji savdo hajmi \(oylik\)](#)

Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmining o'sish sur'atlari
2025-yil yanvar–sentyabr oylari



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


[Ulgurji savdo hajmi o'sish sur'ati \(oylik\)](#)

III. Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo tovar aylanmasi

2025-yil 1-oktyabr holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni 25 589 tani tashkil etib, shundan faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 117 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 25 472 tani tashkil etdi.

2025-yilning yanvar–sentyabr oyida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 167 913,2 mlrd so'mga yetdi va 2024-yilning mos davriga nisbatan 13,8 % ga o'sdi. Savdo aylanmasining 84,0 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi, yirik korxonalar ulushi esa 16,0 %ni tashkil etdi.

Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo tovar aylanmasining o'sish sur'ati dinamikasi
2025-yil yanvar–sentyabr oylari



IV. Uslubiy ma'lumotlar

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasining statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy hujjatlari, shuningdek, "Milliy hisoblar tizimi – 2008", "Chakana va ulgurji savdo statistikasi bo'yicha xalqaro tavsiyalar" (BMT, 2008), "Chakana tovar aylanmasining statistik kuzatuv va uning miqdoriy ko'rsatkichini hisoblash bo'yicha uslubiy tavsiyalar" (MDH qo'mitasi, 2011) xalqaro ko'rsatmalar va tavsiyalaridan foydalaniladi.

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlari norasmiy va yashirin iqtisodiyotning statistik baholash natijalari inobatga olingan holda hisoblanadi.

V. Aloqador boshqa havolalar

[Ulgurji savdo hajmi \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Ulgurji savdo aylanmasining o'sish sur'ati \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Chakana savdo aylanmasi hajmi \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Aholi jon boshiga chakana savdo hajmi \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Aholi jon boshiga chakana savdo hajmi o'sish sur'ati \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Ovqatlanish korxonalari savdo hajmi \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Ovqatlanish korxonalari savdo hajmi o'sish sur'ati \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

Chop etishga mas'ul:

*Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi boshqarmasi*

Manzil: 100170, Toshkent,

Mustaqillik shoh ko'chasi, 63.

Elektron pochta: info@stat.uz

Tel.: 71-203-80-00 (1180, 1185)

